



Integration of social institutions in the upbringing of children with deviant behaviour

Shaxnoza TAYLAKOVA ¹

University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan

ARTICLE INFO

Article history:

Received August 2023

Received in revised form

15 September 2023

Accepted 25 September 2023

Available online

15 October 2023

Keywords:

school children,
education,
media literacy,
delinquency and crime,
social institutions,
behavioural deviance.

ABSTRACT

The study of the multiple aspects of behavioural abnormalities in school-aged children requires a comprehensive approach. Biological, physiological, psychological, socio-educational and socio-economic factors play a key role in shaping the nature and structure of behavioural responses. Awareness and understanding of these factors will make it possible to develop effective methods and strategies of working with young people aimed at the correction and prevention of behavioural vices. The article pays special attention to the integration of efforts of various social institutions.

2181-1415/© 2023 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol4-iss8/S-pp81-87>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Deviant xulq-atvorli bolalarni tarbiyalashda ijtimoiy institutlar faoliyati integratsiyasi

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

maktab yoshidagi bolalar,
ta'lim-tarbiya,
mediasavodxonlik,
huquqbuzarlik va
jinoyatchilik,
ijtimoiy institutlar,
xulq-atvorning og'ishi.

Maktab yoshidagi bolalar orasida xulq-atvor og'ishi kelib chiqishining biologik, fiziologik, psixologik, ijtimoiy-pedagogik, ijtimoiy-iqtisodiy omillarini o'rganish, shu asosda yoshlar bilan ishlash va xulqidagi illatlarni bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish uchun muayyan tizimni yaratish maqsadga mosdir. Maqolada mazkur tizimni yo'lga qo'yishda ijtimoiy institutlar faoliyati integratsiyasi haqida so'z yuritilgan.

¹ PhD, Docent, The University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan. E-mail: an.taylakova@mail.ru

Интеграция деятельности социальных институтов в воспитании детей с девиантным поведением

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

школьники,
образование,
медиаграмотность,
правонарушения и
преступность,
социальные институты,
поведенческие девиации.

Исследование многочисленных аспектов отклонений поведения у детей школьного возраста требует комплексного подхода. Биологические, физиологические, психологические, социально-педагогические и социально-экономические факторы играют ключевую роль в формировании характера и структуры поведенческих реакций. Осознание и понимание этих факторов позволит разработать эффективные методики и стратегии работы с молодежью, нацеленные на коррекцию и предотвращение пороков поведения. Особое внимание в статье уделяется интеграции усилий различных социальных институтов.

KIRISH

Insonning xulq-atvori, uning psixologik holati bilan bog'liq masala ijtimoiy pedagogikada dolzarb muammolardan sanaladi. Bu sohada ilmiy izlanishlar olib borgan ko'plab olimlar insoning tug'ilishidan boshlab shakllanishi, rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan jarayonlarni, hodisalarni tadqiq etish asosida inson xarakteridagi murakkab jihatlarni kashf etgan. Inson xulq-atvorining og'ishi, buzilishi bilan bog'liq muammolar psixologiya fani bilan bir qatorda ijtimoiy pedagogika oldiga ham qator vazifalarni qo'yadi. Og'uvchi xulq (deviant, lot. deviatio-og'ish) deb, kishining qilmishlari, faoliyati turi odatiy, umume'tirof etilgan me'yorlardan farq qiladigan yoki u o'zi a'zosi bo'lgan jamiyat tomonidan qabul qilingan me'yorlarga mos kelmay, barqaror ravishda ularning ijtimoiy me'yorlaridan og'ishida namoyon bo'ladigan axloqqa aytiladi. Deviant axloqning turlariga jinoyatchilik, ichkilikbozlik, giyohvandlik, o'z-o'zini o'ldirish, daydilik, ruhiyatning buzilishi kabi salbiy xarakter xususiyatlari kiradi. Bizningcha, maktab yoshidagi bolalar va o'smirlarning xulq-atvoridagi buzilishlarni korreksiyalash, ularni jamiyatda belgilangan hayotiy normalarga moslashtirish muammosi pedagoglar, psixologlar, ijtimoiy institutlar (oila, mahalla, ta'lim muassasasi), ichki ishlar idoralari vakillari hamkorligida amalga oshiriladigan pedagogik jarayondir [6].

METODOLOGIYA

Xulq og'ishiga ega bo'lgan bolalar va o'smirlar o'rtasida olib boriladigan tarbiyaviy tadbirlarning samaradorligi ularda faol hayotiy pozitsiyani shakllantirish, o'quvchi va o'qituvchi o'rtasida o'zaro yaqinlik va sog'lom munosabatni o'rnatishga bog'liqdir. Shuning uchun o'qituvchining berayotgan e'tiborini, ularni o'zlariga yaqin olayotganligini va yordam bermoqchi bo'layotganligini o'smir har doim his qilib turishi muhim hisoblanadi. Bolalar va o'smirlarda xulq og'ishining oldini olishning muhim shartlaridan yana biri tarbiyaviy jarayonda maktab va oila hamkorligini to'g'ri yo'lga qo'yishdir. Ko'pincha oila va maktab hamkorligi, ota-ona va o'qituvchi o'rtasidagi o'zaro aloqaning uzilishi tufayli bolalar va o'smirlar tarbiyasini, ayniqsa, ular xulqidagi o'zgarishlarni tuzatish ancha qiyin kechadi. Bu yo'lda, bolalar va o'smirlarda deviant xulq atvorning vujudga kelishiga ta'sir o'tkazgan omillarni ham e'tiborga olish lozim. Tashqi va ichki omillar, biologik va ijtimoiy omillarning inson shakllanishidagi ahamiyatini inkor etib bo'lmaydi. Shu bois, xulq og'ishining sabablarini aniqlash va bartaraf etish, sodir bo'lishi mumkin bo'lgan salbiy

oqibatlarning kelib chiqishini kamaytiradi. Yoshlar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiya ishlarining muvaffaqiyati – ularning yosh va psixologik xususiyatlarini bilish hamda hisobga olishga bog'liqdir. Bu holat burilish davri hisoblangan o'smirlik davrining alohida xususiyati bo'lib, u ko'proq shu davrga taalluqlidir. O'smirlik davrini o'tish davri, deb yuritadilar, chunki ana shu davrda bolalikdan kattalik holatiga o'ziga xos o'tish davri yuzaga keladi. Bu jarayonda o'smirning xulqdan og'ishmay shaxs sifatida kamol topishida ijtimoiy institutlar, xususan, oilaning o'rne va ahamiyati katta. Zero, jamiyat taraqqiyoti unda yashayotgan oilalar mustahkamligi bilan belgilanadi. Qaysi bir davlatda oilalar barqaror bo'lsa, shu davlatning ravnaq topishi ham oson kechadi. Oila jamiyatning asosiy tayanchi, mamlakat va millat taraqqiyotini ta'minlashning muhim omili hisoblanadi. Chunki jamiyat, mamlakat va millat taraqqiyotida bo'ladigan munosabatlar dastlab oilada tarkib topadi. Shu sababli oilani mustahkamlash va uning farovonligini ta'minlash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan bo'lib, ustuvor vazifalar qatorida turadi.

Bugungi kunda ijtimoiy-iqtisodiy yuksalishlar sari intilayotgan jamiyatda qadriyatlar mazmunini saqlab qolish, unga oilada, ijtimoiy jamiyatdagi munosabatlar va faoliyatlar davomida qat'iy amal qilish turli yot g'oyalar ta'siriga tushib qolish, o'zligini yo'qotish va tubanlashish kabi salbiy illatlarni oldini olishda samarali yo'l hisoblanadi. O'smirlik yoshi shunday psixologik tabiatga egaki, turli xulq-atvor va turmush tarziga taqlid qilishga, o'z imkoniyatlarini namoyon etishga moyillikni namoyon etadi. Uzlüksiz ta'lim tizimining barcha yo'nalishlarida yoshlarni tarbiyalash bo'yicha oila, mahalla va ta'lim muassasalari hamkorligi tizimi shakllantirilgan. Biroq, bu tizim qanchalik o'zini oqlamoqda? Tizimning "Ota-onalar" kengashlari, "Mahalla va ta'lim muassasasi", "Otalar majlisi" va hokazo kengashlarning faoliyati talabga javob beradimi?

O'rganish va ilmiy monitoring natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, bu boradagi ishlar samaradorligini yangi bosqichga ko'tarishda, avvalo, ommaviy axborot vositalarida "Oila-mahalla-ta'lim muassasasi" hamkorligini aniq ochib beruvchi ko'rsatuv va eshittirishlarni ko'paytirish lozim.

Mahalla faollarining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- mahalla hududida yoshlar va voyaga yetmaganlar orasida huquqbuzarliklarning oldini olish yo'nalishida tegishli muassasalar bilan hamkorlikda har chorakka mo'ljallangan ish rejasini ishlab chiqadi va shu asosda tadbirlarni amalga oshiradi;
- mahallada voyaga yetmaganlar orasida xulq-atvorning og'ishi, huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olish, unga qarshi kurashda profilaktika inspektori bilan hamkorlikda tarbiyaviy-profilaktik ishni amalga oshiradi;
- huquqbuzarlik va jinoyat sodir etishga moyilligi bor yoshlarni aniqlaydi, ular bilan tarbiyaviy-profilaktik ishlar olib boradi; mahallada voyaga yetmaganlar orasida jinoyat va huquqbuzarliklarning oldini olish maqsadida huquq tartibot idoralari, huquqshunoslar, taniqli sportchilar, san'atkorlar, psixologlar, tibbiyot xodimlari ishtirokida tarbiyaviy aksiyalar, uchrashuvlar, davra suhbatlarini tashkillashtiradi;
- yoshlarni vatanparvarlik, milliy g'urur, milliy ong, milliy istiqlol g'oyasi, milliy odob, fidoiylilik fazilatlarini shakllantirishda ta'lim muassasalari, ijodiy tashkilotlar va boshqalar bilan hamkorlik qiladi;
- yoshlar orasida har qanday ko'rinishdagi separatizm va ekstrimizmga qarshi qaratilgan bilim beruvchi qiziqarli uchrashuvlar tashkil etadi; ota-onalarga farzandlarning tarbiyasi bo'yicha amaliy-uslubiy yordam ko'rsatadi. Farzand tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi ota-onalarni mahallada faollar o'rtasida muhokama qiladi;

- mahalla hududida istiqomat qiluvchi yoshlarning qanchasi umumta'lim maktablarining 9-11-sinflarni bitirganini, shundan nechitasi o'quv yurtlariga o'qishga kirgani, nechitasi ishga joylashgani, qanchasi o'qimay-ishlamay yurganligi haqida ma'lumotlarga ega bo'lishi lozim.

Voyaga yetmaganlar tarbiyasida eng asosiy bo'g'in bu oila, ya'ni ota-ona. Shu bois ham, ota-onalar tomonidan jamoatchilik nazorati asosida ta'lim muassasalaridagi ta'lim-tarbiya sifatini o'rganish va ularni yanada takomillashtirishga doir tadbirlarni amalga oshirishdagi faolligini oshirish, o'quvchilar davomatini yaxshilash bilan bog'liq masalalarda mahallaning o'rnini kuchaytirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarni ommaviy axborot vositalari orqali tanqidiy tahlil etish, voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik, jinoyatchilik, huquqbuzarlik yoki boshqa noijtimoiy harakatlar sodir etilishining oldini olish bo'yicha keng tushuntirish ishlarini amalga oshirish, "Ota-onalar universiteti" faoliyatini yanada kuchaytirish, suhbatlar va savol-javob kechalarini tashkil etish orqali keng jamoatchilikka yetib borish kabi masalalarni kuchaytirish maqsadga muvofiqdir.

Maktab yoshidagi bolalarning ma'naviy barkamolligini, g'oyaviy dunyoqarashini takomillashtirishda ta'lim-tarbiya, targ'ibot va tashviqotning samarali usul va vositalaridan oqilona foydalanish bugun davr talabiga aylanib ulgurgan. Bu jarayonni amalga oshirish mexanizmlarini quyidagicha ifodalash mumkin:

- maktab yoshidagi bolalarda ommaviy axborot vositalari asosida hayotni teran anglashi, muammolarni chuqur tahlil etishi orqali ularni mazkur muammolarni hal etishga qiziqtirish, muhokamalarda erkin qatnashishga o'rgatish va fikrlar xilma-xilligini ta'minlash;
- maktab yoshidagi bolalarni jamiyatda ro'y berayotgan yangilanishlarni to'g'ri qabul qilishga, uning faol ishtirokchisiga aylanishiga, istiqboldagi rejalarni amalga oshirish uchun tayyor turishga o'rgatish, tarbiyaviy ishlarning negizini tashkil etish;
- maktab yoshidagi bolalarni turli ma'naviy tahdidlardan asrash uchun u shakllanayotgan ijtimoiy muhitning ta'sirini kuchaytirish lozim, xususan, oila muhitida ota-onalarning mas'uliyatini yanada oshirish;
- maktab yoshidagi bolalar ma'naviyatini shakllantirishda barcha ta'lim muassasalarining o'qituvchilari, sinf rahbarlari hamda ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha rahbar o'rinbosarlarining rolini oshirish;
- ta'lim dargohlarida o'quvchilarning yoshiga qarab g'oyaviy-huquqiy, ma'naviy-ma'rifiy savodxonlikni rivojlantirishning pedagogik-psixologik dasturlarini ishlab chiqish, maktab yoshidagi bolalarda ezgu fikr, yetuk g'oyalarni shakllantirish ishlarini uzluksiz tarzda olib borish, o'qituvchi-pedagoglarning ham bu boradagi bilimlarini muntazam chuqurlashtirib borish zarur;
- ma'naviyat, adabiyot darslari, darsdan tashqari mashg'ulotlar, guruh axborot soatlarida vatanparvarlik ruhidagi videoroliklar, giyohvandlikka, kashandalikka qarshi sog'lom turmush tarzini targ'ib qiluvchi yuksak tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan videolavhalar bilan doimo o'quvchilarni tanishtirib borish maqsadga muvofiqdir;
- jismoniy tarbiya va sport sohasiga katta e'tibor qaratish, uni har bir yoshning kundalik ehtiyojiga aylantirish, maktab yoshidagi bolalarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish va jismonan baquvvat qilib tarbiyalash maqsadida jismoniy tarbiya va sport to'garaklari faoliyatini keng yo'lga qo'yish lozim, shuningdek, maktab yoshidagi bolalar orasida "Sport" kanali dasturlarini kuzatib borishni targ'ib qilish, sport musobaqalarini

o'zaro tahlil qilishga, mulohaza yuritishga ularni o'rgatish, sport turlariga bo'lgan motivatsiyani rivojlantirish, jismoniy tarbiya darslarida uyushtirilgan futbol, voleybol, basketbol o'yinlarini o'tkazilishida "Yosh sport sharhlovchi" larini tarbiyalash maqsadga muvofiqdir;

- jamoatchilik fikrini shakllantirish, qonunlarni xalqimiz, avvalo, yosh avlod ongiga singdirishda ommaviy axborot vositalarining o'rnini hisobga olib aytish mumkinki, matbuot sahifalarida maktab yoshidagi bolalarni ezgu g'oyalarga da'vat eta oladigan hayotiy mavzulardagi materiallarni chop etib borish, turli xil fikrlar, rang-barang qarash va yondashuvlarga keng yo'l ochib berish zarur;
- ommaviy axborot vositalari hayotimizda yuz berayotgan yangilanish va o'zgarishlarga maktab yoshidagi bolalarning ongli munosabatini uyg'otishlari, xolislik va haqqoniyat tamoyillariga tayanib faoliyat olib borishlari lozim; [4]
- uyali aloqa vositalari orqali axloqsizlikni namoyish va targ'ib qiluvchi materiallarning tarqalishiga yo'l qo'ymaslik, maktab yoshidagi bolalarimizni bunday illatlar domiga tushib qolishining oldini olish, oq va qorani, yaxshi va yomonni, axloq va tubanlikni farqlash ko'nikmasini ularda shakllantirish bugungi kunning kechiktirib bo'lmaydigan dolzarb vazifalaridandir.

Xulq og'ishi kuzatilgan o'smirlarda hayotiy axloq normalarini shakllantirish, ularni hayotga to'g'ri yo'naltirish hamda o'zlariga nisbatan ishonch hissini kamol toptirish lozim. Buning uchun ularga yoshi, kuchi, qobiliyati va qiziqishlarini hisobga olib, topshiriqlar berish ayni muddaodir. Bu borada, ularni o'zlari qiziqqan to'garaklarga jalb qilish yaxshi natijalar beradi. Eng muhimi shundaki, tarbiyalanuvchilarga ishonish kerak. Ularning qo'lidan keladigan ishlarga e'tiborli bo'lib, uni bajarganidan keyin rag'batlantirish muhimdir. Yoshlarni bemani hordik chiqarish va ko'cha-ko'ya maqsadsiz yurishlariga yo'l qo'ymaslik lozim. Buning uchun maktab, mahalla, jamoatchilik va oila hamkorligini mustahkamlash, bolalarni iloji boricha maktabdan tashqari muassasalarga jalb etish choratadbirlarini qo'llash kerak.

Deviant xulq-atvorli bolalar tarbiyasi individuallikni talab qiladi. Xulq og'ishi kuzatilgan har bir bola uchun tarbiya berishning optimal strategiyasini belgilab olish maqsadga muvofiqdir. Individual yondashuv, ya'ni har bir bolaga maxsus pedagogik ta'sir o'tkazish mazkur muammoni hal etishda ijobiy samara beradi [5].

Bundan tashqari, tarbiyaviy ta'sirning bolani har tomonlama rivojlantirishga yo'nalganligi, darsdan tashqari faoliyatlarda bolalarga mustaqil faoliyat (o'qish, o'yin, mehnat, xobbi va qiziqishlari)ni tanlash uchun imkoniyat berish, har bir bola uchun ularni aqlan hamda axloqan rivojlanishiga yo'naltirilgan tarbiyaviy ishlarni tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

NATIJALAR

Bugungi kunda ijtimoiy institutlar xususan, oila, mahalla va ta'lim muassasalari voyaga yetmaganlar va yoshlarning ijtimoiy jarayonlardagi faolligini oshirishda, siyosiy madaniyatini yuksaltirish, ular ongiga istiqloq mafkurasini singdirish, milliy o'zligi hamda kelajagini o'z qo'li bilan yaratishga qodirligini anglatish, shular qatorida ularning ichki salohiyatini ro'yobga chiqarishda hal qiluvchi omil sifatida amaliy faoliyatlarini kuchaytirmoqdalar. Hozirgi kunda "Oila – mahalla – ta'lim muassasasi" hamkorligi konsepsiyasi bugun navqiron avlodni turli xil huquqbuzarliklar, ekstremizm, giyohvandlik, ommaviy madaniyat kabi illatlardan asrab-avaylash, bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish, yoshlarni kasbga yo'naltirishning muhim omili bo'lmoqda. "Oila – mahalla – ta'lim

muassasasi” hamkorligida tarbiyasi og’ir o’quvchi-yoshlarning darslarga to’liq qatnashishi, ularning ta’lim-tarbiyasini alohida nazoratga olish, ularning bo’sh vaqtlarini to’garaklar, ma’naviy-ma’rifiy va sport musobaqalariga jalb etish zarurdir.

Shuningdek, umumiy o’rta ta’lim maktab o’quvchilari orasida huquqbuzarlikning oldini olish uchun profilaktik xizmat tizimi qo’yidagi tartibda amalga oshiriladi:

- profilaktika ob’yektini tanlash;
- profilaktik metodikani belgilash (ishlab chiqish);
- diagnostika o’tkazish;
- natijalarni tahlil qilish (interpretatsiya);
- diagnostika tahlili asosida korreksion tavsiyalar va tadbirlar ishlab chiqish;
- profilaktik xizmat qilish mazmunini belgilash va amalga oshirish (korreksiya va sog’lomlashtirish ishlari);
- qayta diagnostika o’tkazish, sifat o’zgarishlarini aniqlash [5].

Jamiyatimizdagi yoshlarni tarbiyalashda optimal uslub va vositalardan foydalanish, korreksiyalashga yo’naltirilgan tadbirlarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Umumiy o’rta ta’lim maktablarida samarali profilaktik ta’minotlarni tuzish va amalga tatbiq qilishni davr taqozo etadi. Shu bilan bir qatorda o’quv muassasalarining o’zida (imkoniyatlardan kelib chiqqan holda) pedagogik diagnostika va pedagogik korreksiya markazlarini tashkil qilish va amaliy faoliyat yuritishlariga erishish; pedagogik diagnostika va korreksiya jarayoni uchun zarur bo’lgan didaktik ta’minotlarning bashoratini rivojlantirish zarur.

XULOSA

O’qituvchining o’quvchilar bilan muloqoti huquqiy, axloqiy tarbiyaning muhim omili hisoblanadi. O’quvchilar sinf rahbari bilan muloqotga kirishar ekanlar o’z onglarida kishilarning xulqlaridagi muayyan namunalarni tasavvur qiladilar va mustahkamlaydilar, o’z xatti-harakatlari va munosabatlari, axloqiy me’yor va qoidalarini shakllantiradilar. Maktab yoshidagi bolalar muloqot jarayonida ongida mustahkamlanib qoluvchi ma’naviy qarashlar, hislar, me’yorlarni qabul qiladilar, o’zlashtiradilar, bu esa xulq-atvordagi ijobiy holatlarni shakllantirishga ko’maklashadi. Sinf rahbari tomonidan turli ma’naviy nazorat shakl, vositalari o’rnatiladi. Sinf rahbari muloqotning axborot va emotsional jihatlaridan mohirlik bilan foydalangan holda tarbiya jarayonida uning sifat ko’rsatkichini yaxshilashga erishishi mumkin. Sinf rahbarining suhbatni kerak vaqtda u yoki bu yo’nalishga burib yubora olishi, zaruriy hayotiy faktlardan ustalik bilan foydalana olishi ham tarbiya ta’sirchanligini oshiradi.

Maktab yoshidagi bolalar ma’naviyatini shakllantirish ular o’rtasida turli mavzuda tadbirlar o’tkazish va tushuntirish ishlarini olib borish, suhbat va bahslar, seminar, konferensiyalar uyushtirish ishlarini takomillashtirish orqali amalga oshiriladi.

Ma’naviy barkamol shaxsni shakllantirish mexanizmi va yo’llari quyidagilarni o’z ichiga oladi:

1. Ta’limni insonparvarlashtirishni amaliyotga tatbiq qilish.
2. Maktab yoshidagi bolalarni ma’naviy jihatdan tarbiyalash uzviyligini ta’minlash.
3. O’qitish jarayoni, auditoriyadan tashqari, mahalla, maktab yoshidagi bolalar bilan ishlash tashkilotlari tizimi, an’anaviy tadbirlar, radio, televideniye va boshqa ommaviy axborot vositalari yordamida ta’lim jarayonining uyg’unligini ta’minlash.
4. Ma’naviy barkamol shaxsning quyidagi sifatlarga ega bo’lishi:
 - informatsion madaniyatga, o’z mustaqil fikriga ega bo’lishi;

– tadbirkorlik ko'nikmalariga egalik va boshqalar.

Shunday qilib, ta'lim maskanlarida tarbiya ishlari izchil olib borilsagina, yigit va qizlarda chinakam, barqaror e'tiqodlar shakllanadi. Yoshlarda axloqiy tushunchalarni oqilona shakllantirish, ularga nojo'ya xulq-atvor, ma'naviyati va ruhiyatiga salbiy ta'sir qiladigan xatti-harakatlardan holi bo'lishga yordam berish, ijtimoiy hayotda uchraydigan negativ illatlarga zarba berish, ularning ta'siridan yigit va qizlarni asrash pedagogik diagnostika va korreksiyalashning muhim vazifasi hisoblanadi. Bu esa pedagogik korreksiyalash metodikalarini ta'lim tizimida to'g'ri tashkillashtirishni taqozo etadi.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Sh.M.Mirziyoyevning "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi farmoni. Xalq so'zi, 2017 yil 6 iyul.
2. Quronov M. (2013). Bolam baxtli bo'lsin, desangiz (Ota-onalar uchun tavsiya). T.: "Ma'naviyat", 320 b.
3. Qosimova N., Toshpo'latova N. (2014). O'zbekistonda ommaviy axborot vositalarida bolalar mavzusini yoritishning nazariy va amaliy asoslari. O'quv qo'llanma. Toshkent. 211 b.
4. Paxrutdinov Sh. (2014). Global axborot jamiyati va mediata'lim. O'quv-uslubiy ko'rsatma. Toshkent.
5. Taylakov va boshqalar. (2019). Voyaga yetmaganlar orasida jinoyatchilik va huquqbuzarlikka moyil o'quvchilarni tarbiyalashning ijtimoiy-pedagogik vositalari va texnologiyalari. Monografiya. III tom. Toshkent: "Navro'z" nashriyoti, 320 b.
6. Djurayev R.X., Kuchukbayev F.M., E.M.Azimova, O.F.Sotiboldiyev. (2012). Ta'lim-tarbiya jarayonida darsga salbiy munosabatdagi bolalarga nisbatan konstruktiv ta'sir etish. Maktab pedagog va psixologlari uchun ilmiy metodik qo'llanma. Toshkent."